

O'ZBEKISTONDA ISLOMIY MOLIYALASHTIRISH UCHUN YANGI SOLIQ REJIMI: SOLIQ KODEKSIGA KIRITILGAN O'ZGARTIRISHLAR TAHLILI

Safarov Radjabboy Eshmuxammadovich

Farg'ona ilg'or kasbiy mahorat texnikumi bosh o'qituvchisi

Isroilov Sarvarbek Jaxongir o'g'li

Farg'ona ilg'or kasbiy mahorat texnikumi 2-24 guruh o'quvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqola O'zbekiston sharoitida islom moliyasining rivojlanish imkoniyatlari, uning afzalliklari, muammolari va soliq tizimiga integratsiyasi masalalarini yoritadi. Dunyo bo'yicha islom moliyasi bozorining statistik ko'rsatkichlari keltiriladi, shu bilan birga, O'zbekistonda aholining diniy tamoyillari va moliyaviy xatti-harakatlari islom moliyasiga bo'lgan talabning salohiyatini ko'rsatadi. Maqolada O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi va O'RQ-1126-son Qonuniga kiritilgan o'zgarishlar orqali islom moliyasi operatsiyalarini soliq tizimiga moslashtirish, shuningdek, murabaha, ijara va sukuk kabi instrumentlar orqali moliyaviy neytrallikni ta'minlash choralari tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *Islom moliyasi, soliq kodeksi, O'RQ-1126-son Qonun, murabaha, ijara, sukuk, moliyaviy neytrallik, bank faoliyati, investitsiya*

Аннотация: *Данная статья освещает возможности развития исламских финансов в условиях Узбекистана, их преимущества, проблемы и интеграцию в налоговую систему. Приводятся статистические показатели мирового рынка исламских финансов, а также демонстрируется потенциал спроса на исламские финансовые услуги в Узбекистане с учётом религиозных убеждений и финансового поведения населения. В статье анализируются меры по адаптации операций исламских финансов к налоговой системе через изменения в Налоговом кодексе Республики Узбекистан и Законе ОРК-1126, а также обеспечению финансовой нейтральности посредством инструментов, таких как мурабаха, иджара и сукук.*

Ключевые слова: *Исламские финансы, Налоговый кодекс, мурабаха, сукук, финансовый нейтралитет, банковская деятельность, инвестиции*

Annotation: *This article examines the development opportunities of Islamic finance in Uzbekistan, its advantages, challenges, and integration into the tax system. It provides statistical data on the global Islamic finance market and highlights the potential demand for Islamic financial services in Uzbekistan, taking into account the population's religious beliefs and financial behavior. The article analyzes measures to adapt Islamic finance operations to the tax system through amendments to the Tax Code of the Republic of Uzbekistan and Law ORQ-1126, as well as ensuring financial neutrality using instruments such as Murabaha, Ijara, and Sukuk.*

Keywords: *Islamic finance, Tax Code, Murabaha, Sukuk, Financial neutrality, Banking activity, Investment*

So'nggi yillarda dunyoda moliyaviy tizimlar tobora diversifikatsiyalanib bormoqda. Shular qatorida islom moliyasi alohida o'rin egallaydi. Islom moliyasi — bu shariat qoidalariga asoslangan moliyaviy tizim bo'lib, unda foiz (ribo) taqiqlanadi va halol iqtisodiy faoliyat qo'llab-quvvatlanadi. Bugungi kunda bu tizim nafaqat musulmon davlatlarda, balki butun dunyoda keng tarqalmoqda.

Dunyo bo'yicha islom moliyasi sohasining global aktivlari barqaror o'sishda davom etmoqda. 2024-yilda bu aktivlar hajmi taxminan 5,98 trillion AQSh dollariga yetib, o'tgan yilga nisbatan 21% o'sish ko'rsatdi, bu esa sanoatning tez sur'at bilan kengayayotganidan darak beradi. Tarixiy nuqtai nazardan qaraganda, 1960–1970-yillarda kichik segment bo'lgan islom moliyasi bugungi kunda bir qator davlatlarda moliya tizimining asosiy qismiga aylangan. Prognozlariga ko'ra, global islom moliya aktivlari 2027-yilgacha 6,7 trillion AQSh dollaridan oshishi kutilmoqda, bu esa barqaror o'sish tendensiyasining davom etishidan dalolat beradi. Shu bilan birga, sukuk (islomiy obligatsiyalar) bozorida ham sezilarli rivojlanish kuzatilmoqda: 2024-yilda sukuklar bo'yicha nashr etilgan qiymat 200+ milliard AQSh dollar atrofida bo'lib, bozor segmentining jadal rivojlanayotganini ko'rsatadi.

O'zbekiston sharoitida islom moliyasi o'ziga xos ustunliklarga ega bo'lib, aholining diniy e'tiqodiga mos kelishi orqali ishonchni oshiradi, kichik biznesni riskni bo'lishish asosida qo'llab-quvvatlaydi, moliyaviy barqarorlikni ta'minlaydi va ayniqsa musulmon davlatlardan investitsiyalarni jalb qiladi. Shu bilan birga, islom moliyasining rivojlanishi jarayonida ayrim muammolar va to'siqlar ham mavjud: maxsus qonunchilik bazasi yetarli emas, malakali mutaxassislar yetishmaydi, aholida tushuncha to'liq shakllanmagan va amaldagi bank tizimi bilan integratsiyada qiyinchiliklar kuzatiladi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda zamonaviy bank xizmatlarini joriy etish, shuningdek xalqaro tajribaga tayangan holda bank tizimini takomillashtirish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, moliyaviy xizmatlar qamrovini yanada kengaytirish, ayniqsa islomiy moliya tamoyillariga mos yangi bank xizmatlarini yo'lga qo'yish ehtiyoji tobora ortib bormoqda.

2026-yil 27-mart kuni qabul qilingan O'RQ-1126-son Qonun ushbu yo'nalishda muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi. Mazkur qonunga muvofiq, O'zbekiston Respublikasining ayrim normativ-huquqiy hujjatlariga islomiy bank faoliyatini yuritishning huquqiy mexanizmlarini belgilashga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

Unga ko'ra, mamlakatda islomiy bank xizmatlarini bosqichma-bosqich joriy etish, moliya bozorida sog'lom raqobatni rivojlantirish, yashirin iqtisodiyot ulushini kamaytirish hamda investitsion jozibadorlikni oshirish ko'zda tutilgan.

Shuningdek, ushbu hujjat islomiy moliyaviy vositalarni rivojlantirish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va aholi hamda tadbirkorlar uchun moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Mazkur qonun nafaqat islomiy bank faoliyatini yo'lga qo'yishning umumiy mexanizmlarini belgilab berdi, balki soliq tizimini ham ushbu faoliyatga moslashtirishni nazarda tutdi.

Xususan, ushbu qonunga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining bir qator moddalariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Jumladan:

Birinchidan, Islomiy moliya faoliyati deganda banklar hamda mikromoliya tashkilotlari tomonidan islom moliyasi tamoyillari va xalqaro standartlariga muvofiq ravishda amalga oshiriladigan moliyaviy xizmatlar va operatsiyalar majmui tushuniladi. Ushbu faoliyatda foiz (riba)dan foydalanish taqiqlanadi, bitimlar esa real aktivlarga bog'langan bo'lishi, shaffoflik va adolat tamoyillariga asoslanishi lozim. Mazkur tushuncha O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 60-moddasiga kiritilgan qo'shimcha bilan mustahkamlab qo'yilgan.

Bunday faoliyat doirasiga quyidagilar kiradi: mijozlarni savdo asosida moliyalashtirish (masalan, murabaha), sheriklik asosida investitsiya loyihalarini amalga oshirish (musharaka, mudaraba), aktivlarni ijaraga berish (ijara), shuningdek, islomiy qimmatli qog'ozlar orqali mablag' jalb qilish (sukuk).

Shu tariqa, islomiy moliya faoliyati an'anaviy foizli moliyalashtirishdan farqli o'laroq, risklarni bo'lishish, real iqtisodiyot bilan bog'liqlik va axloqiy moliyaviy yondashuvga asoslanadi.

Ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 18-moddasi ("Maxsus soliq rejimlari")ga kiritilgan qo'shimchaga muvofiq, islom moliyasi operatsiyalarini amalga oshirishni nazarda tutuvchi yangi maxsus soliq rejimi joriy etilmoqda. Mazkur o'zgartirish islomiy moliyaviy vositalar va bitimlarning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda soliqqa tortish tartibini belgilash, shuningdek, ushbu sohada faoliyat yurituvchi subyektlar uchun qulay va aniq soliq mexanizmini yaratishga qaratilgan.

Uchinchidan, banklar va mikromoliya tashkilotlardagi islomiy qimmatli qog'ozlar (sertifikatlar) egalari ixtiyorida qoladigan foyda summasidan olinadigan daromadlar dividendlarga tenglashtirilmoqda. Shuningdek, islom moliyaviy faoliyati doirasida olingan daromadlar foizlar sifatida e'tirof etilishi belgilandi (O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 41-moddasiga kiritilgan o'zgartirishlarga muvofiq).

To'rtinchi, qimmatli qog'ozlar tarkibiga aksiyalar, obligatsiyalar, veksellar va boshqa moliyaviy vositalar bilan bir qatorda islomiy qimmatli qog'ozlar (sertifikatlar) ham kiritilmoqda. Mazkur o'zgartirish O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 49-moddasiga kiritilgan qo'shimchalar bilan belgilangan.

Moliyaviy ijara tushunchasiga endilikda islomiy moliyaviy faoliyat doirasida banklar va mikromoliya tashkilotlari (MMT) tomonidan tuziladigan islomiy ijara shartnomalari ham kiritilmoqda. Bu bilan ijara (lizingga o'xshash) operatsiyalarining islomiy shakli ham qonunchilik darajasida tan olinmoqda.

Shu bilan birga, moliyaviy ijara shartnomasi moliyaviy ijara sifatida e'tirof etilishi uchun kamida bitta mezonga javob berishi kerak bo'lgan talablar ro'yxati kengaytirildi. Yangi kiritilgan mezonga ko'ra, agar islomiy moliya doirasida bank yoki MMT bilan tuzilgan ijara shartnomasi muddati tugagach, ijaraga oluvchi ijara obyektiga bo'lgan mulk huquqini alohida shartnoma asosida boshqa shaxsga o'tkazish hamda ushbu shartnomada belgilangan shartlar asosida mol-mulkni qabul qilib olish huquqiga ega

bo'lsa, bunday shartnoma ham moliyaviy ijara deb tan olinadi. Ushbu o'zgarishlar Soliq kodeksining 54-moddasiga kiritilgan.

Bundan tashqari, buxgalteriya hisobi sohasida ham yangi talab joriy etildi. Unga ko'ra, islomiy moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar hamda islomiy qimmatli qog'ozlar (masalan, sukuk)dan olinadigan daromadlar alohida hisobda yuritilishi shart. Bu tartib korxonaning hisob siyosatida albatta aks ettirilishi lozim. Mazkur norma Soliq kodeksining 77-moddasiga kiritilgan o'zgartirishlar bilan belgilangan.

Yana bir muhim yangilik shundan iboratki, banklar va MMTlar bilan islom moliyasi operatsiyalari bo'yicha tuziladigan oddiy shirkat (hamkorlik) shartnomalari doirasidagi faoliyat boshqa oddiy shirkatlardan farqli ravishda ayrim hollarda aylanmadan olinadigan soliqqa tortilishi mumkin. Bu Soliq kodeksining 396-moddasiga kiritilgan o'zgartirishlarda nazarda tutilgan.

Shuningdek, Soliq kodeksiga yangi 71-2-bob kiritilib, u to'liq islom moliyaviy operatsiyalarini soliqqa tortishning o'ziga xos jihatlariga bag'ishlandi. Bu bob orqali islomiy moliyalashtirish mexanizmlarining soliq jihatdan aniq va tizimli tartibga solinishi ta'minlanadi.

QQS (qo'shilgan qiymat solig'i)

Quyidagi operatsiyalar QQSdan ozod etiladi:

- islomiy qimmatli qog'ozlar (sertifikatlar, sukuk) bilan operatsiyalar (biroq ularni saqlash, hisobga olish, o'tkazish, reyestr yuritish va savdoni tashkil etish xizmatlari bundan mustasno);
- islomiy moliyaviy faoliyat doirasida ishonchli boshqaruv shartnomalari bo'yicha banklar va MMT xizmatlari;
- moliyaviy (islomiy) ijara operatsiyalari — bunda barcha to'lovlar summasi bilan sotib olish narxi o'rtasidagi ijobiy farq QQSdan ozod qilinadi;
- islomiy moliya doirasida banklar va MMTlar tomonidan xaridorlarga sotiladigan tovarlarga qo'yiladigan ustama (masalan, murabaha bitimlarida).

Foyda solig'i

Islomiy moliyaviy faoliyatdan olinadigan jami daromad tarkibiga quyidagilar kiradi:

- islom moliya operatsiyalaridan olinadigan mukofot (marja, foyda) ko'rinishidagi daromadlar;
- islom sug'urta (takaful) va qayta sug'urta shartnomalari bo'yicha daromadlar.

Shu bilan birga, islomiy moliya operatsiyalari doirasida berilgan foizsiz qarzlari yoki Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasidan past stavkada berilgan mablag'lar bo'yicha qarz oluvchida "shartli daromad" yuzaga kelmaydi (ya'ni soliq hisoblanmaydi).

Bundan tashqari, islomiy moliya doirasida undirilgan jarima va penya summalari foyda solig'ini hisoblashda chegiriladigan xarajatlar sifatida tan olinadi.

JShDS (jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i)

Jismoniy shaxslarning banklar va MMTlar bilan islomiy moliya shartnomalari asosida (vositachilik, topshiriq, ishonchli boshqaruv va sheriklik shakllarida) olgan

daromadlari soliqqa tortilmaydi. Bu esa aholining islomiy moliyaviy instrumentlarga qiziqishini oshirishga xizmat qiladi.

Mol-mulk solig'i

Agar mol-mulk islomiy moliyaviy ijara asosida berilsa, mol-mulk solig'ini ushbu mol-mulkni taqdim etayotgan bank yoki MMT to'laydi. Ya'ni, klassik lizingdan farqli ravishda soliq majburiyati ijaraga oluvchiga emas, balki ijaraga beruvchiga yuklatiladi.

Yer solig'i

Xuddi shuningdek, moliyaviy (islomiy) ijara asosida berilgan ko'chmas mulk joylashgan yer uchastkalari bo'yicha ham yer solig'ini bank yoki MMT (ijaraga beruvchi) to'lovchi sifatida to'laydi.

Umuman olganda, ushbu o'zgarishlar islomiy moliyalashtirish instrumentlarini klassik moliya vositalari bilan teng sharoitda ishlashini ta'minlash (soliq neytralligi) hamda ularning amaliyotda keng qo'llanilishiga zamin yaratishga qaratilgan.

Islomiy bank xizmatlari foiz o'rniga savdo, ijara va sheriklik asosida ishlaydi va ular uchun soliq tizimi shu modelga moslashtirilgan. Natijada islomiy va an'anaviy moliya o'rtasida soliq yuklamasi jihatidan teng (neytral) sharoit yaratilgan, bu esa investorlar va mijozlar uchun adolatli va raqobatbardosh muhitni ta'minlaydi.

Amaliyot va qonunchilikni yanada takomillashtirish maqsadida quyidagi taklif va mulohazalarni keltirish mumkin:

№	Taklif / Muammo	Amaliy ta'siri	Taklif etiladigan yechim
1	Mol-mulk va yer soliqlari bo'yicha majburiyatlar bank balansida qoladi	Mijoz uchun ijara narxi oshadi; bank ma'muriy yukini oshiradi	Bank va mijoz o'rtasida soliq majburiyatlarini aniqlovchi mexanizm ishlab chiqish
2	Buxgalteriya va soliq hisobi bo'yicha standart yo'qligi	Bank va MMTlar hisobot berishda chalkashlik, nazorat murakkablashadi	Ijro etilayotgan islomiy moliyaviy operatsiyalar bo'yicha yagona buxgalteriya va soliq hisoboti formati joriy etish
3	QQS bo'yicha noaniqlik (murabaha, ijara)	Ustama yoki ijobiy farq QQSdan ozod bo'lsa-da, amaliyotda chalkashlik yuzaga kelishi mumkin	Misol asosida qo'llanma ishlab chiqish, QQS hisoblash bo'yicha aniq yo'riqnoma
4	Jismoniy shaxslar uchun imtiyozlar cheklangan	Kichik investorlar va tadbirkorlar islomiy moliyaga kamroq jalb qilinadi	Jismoniy shaxslar uchun daromad soliqdan ozod qilishni kengaytirish, rag'batlantiruvchi mexanizmlar joriy etish
5	Sukuk va boshqa islomiy qimmatli qog'ozlar bozori rivojlanishida qo'shimcha rag'bat yetishmaydi	Investorlar jalb qilish sekinlashadi	Sukuk chiqarishni rag'batlantiruvchi qo'shimcha mexanizmlar, soliq imtiyozlari va kafolatlarni joriy etish

Islom moliyasi O'zbekiston iqtisodiyoti uchun katta imkoniyatlar yaratadi.

U nafaqat moliyaviy tizimni diversifikatsiya qiladi, balki aholining keng qatlamini moliyaviy xizmatlar bilan qamrab olishga yordam beradi.

Kelgusida to'g'ri yondashuv va samarali siyosat orqali islom moliyasi mamlakat iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismiga aylanishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2024.
2. O'zbekiston Respublikasining 2026-yil 27-martdagi O'RQ-1126-son Qonuni.
3. Islom taraqqiyot banki. Islamic Finance Development Report 2024. – Jidda, 2024.
4. Accounting and Auditing Organization for Islamic Financial Institutions. Shariah Standards. – Bahrayn, 2023.
5. Islamic Financial Services Board. Islamic Financial Services Industry Stability Report 2024. – Kuala-Lumpur, 2024.
6. Muhammad Taqi Usmani. An Introduction to Islamic Finance. – Karachi: Idaratul Ma'arif, 2002.
7. Zamir Iqbal va Abbas Mirakhor. An Introduction to Islamic Finance: Theory and Practice. – Wiley, 2011.
8. World Bank. Global Financial Development Report. – Washington, 2023.
9. International Monetary Fund. Islamic Finance and Economic Growth Working Paper. – 2022.
10. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki materiallari va rasmiy statistik ma'lumotlari. – www.cbu.uz
11. Statista. Global Islamic Finance Market Size Statistics 2024.
12. Islamic Finance: Law, Economics, and Practice. – Cambridge University Press, 2006.
13. Rodney Wilson. Islamic Banking and Finance. – Routledge, 2009.
14. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi – www.lex.uz